



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI (O‘ZBEKISTON)

L.N.GUMILYOV NOMIDAGI YEVROOSIYO MILLIY UNIVERSITETI (QOZOG‘ISTON)

KARABUK UNIVERSITETI (TURKIYA)

NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI (OZARBAYJON)

XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI (TOJIKISTON)



**Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati
taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati**

**Роль и значение Захириддина Мухаммада Бабура в развитии
мировой науки и культуры**

**The role and importance of Zahiriddin Muhammad Babur in the development
of world science and culture**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

FARG‘ONA - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani,
madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati**

**Роль и значение Захириддина Мухаммада Бабура в
развитии мировой науки и культуры**

**The role and importance of Zahiriddin Muhammad Babur
in the development of world science and culture**

Farg‘ona -2023

TAHRIRIYAT:

Ma'sul muharirlar:

Rahimov Zokir Azimovich, f.f.d. dotsent

Jurayeva Manzura Axronqulovna, f.f.b.f.d. dotsent

Tahrir kengashi a'zolari

Qosimov Abdug'opir - f.f.d., professor

Jo'rayev Habibullo - f.f.d., professor

Sabirdinov Akbarali - f.f.d., professor

Yulchiyev Qaxxor - f.f.d., dotsent

Xo'jayev Sidiqjon - katta o'qituvchi

Dehqonova Ma'suma - f.f.b.f.d., PhD

Umurzaqov Rustamjon- f.f.b.f.d., PhD

Umarov Davron – o'qituvchi

Sayidolimov Javoxir – o'qituvchi

Maxmidjonov Shoxrux - o'qituvchi

ABDULLA AVLONIY SHE'RIYATIDA MILLIY RUH IFODASI

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ АВЛАНИ

NATIONAL SPIRIT EXPRESSION IN ABDULLAH AVLANI'S POETRY

**Yoqubova Sevinch Islamjonovna,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
Email: sevinchoy.yakubova@mail.ru**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniy lirik merosining poetik ifoda rakurslari rang-barangligi o'rganilgan. Unda shoirning marifatparvarlik va jadid she'riyatini shakl, mazmun, ifoda va uslub nuqtai nazaridan yangilashga munosib hissa qo'shgani masalasi tadqiq etilgan. Shuningdek, A.Avloniy she'riyatida jadidchilik g'oyalari, ularning maqsad va vazifalari badiiy aks etgani yoritilgan.

Аннотация: В данной статье был изучен колорит поэтического выражения лирического наследия Абдуллы Авалона. Кроме того, было исследовано просвещение поэта и форма, содержание, экспрессия и стилистическое обновление вклада джадидской поэзии. Также было проанализировано художественное отражение идей джадидизма, их цели и задачи в поэзии А.Авлони.

Annotation: In this article, color of poetic expression of lyricist heritage of Abdullah Avlony was studied. In addition, enlightenment of poet and form, content, expression and stylistic renewal of jadid poetry contribution was investigated. Also, artistic reflection of jadidism ideas, their purpose and task in A.Avlony's poetry was analyzed.

Kalit so'z va iboralar: poetik obraz, adabiy an'ana, jadid she'riyati, ijtimoiy lirika, lirik qahramon, o'ziga xoslik, sarlavha, janr, uslub, milliy ruh

Ключевые слова и идиоматика: поэтический образ, литературная традиция, поэзия джадидов, социальная лирика, лирический герой, идентичность, название, жанр, стиль, национальный дух.

Keyword and idiomatic: poetic image, literary tradition, jadid poetry, social lyrics, lyric hero, identity, title, genre, style, national spirit.

Jadid adabiyoti "*an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga keldi*" [2.3]. She'riyat shakl, mazmun, ifoda va uslub nuqtai nazaridan yangilandi. U jadidlar ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalarini badiiy aks ettirdi. O'zining tez tarqalishi va keng auditoriyani qamrashi, estetik ta'sirchanligi bobida nasr va dramaturgiyaga nisbatan yetakchilik mavqeini saqlab qoldi.

She'riyat dastavval, o'z mazmunini tubdan yangiladi. Chunki adabiyotni tashviqot vositasi [3.216] sifatida tushungan jadid shoirlari imkon qadar real hayotga yaqinlashishga harakat qilishdi. Ular an'anaviy obrazlar mazmunini o'zgartirishdi. Aniqroq aytganda, obrazlar sistemasini sezilarli darajada kengaytirishdi. Lirikani xalq jonli tiliga yaqinlashtirishdi va badiiy ifodada soddalikka intilishdi.

E'tirof etmoq lozimki, o'tgan asrning 20-yillari she'riyatida yangi mazmun dastavval g'azal, masnaviy, ruboiy, qit'a, tarje'band, tarkibband, musammat singari an'anaviy, ammo shakliy jihatdan qisman yangilangan janrlar doirasida ifoda etildi. Chunki birinchi navbatda kitobxonning zavqi, asrlar davomida shakllangan didini e'tibordan soqit qilish mumkin emasdi. Shu tarzda, asta sekin barmoq va sarbast vaznlari, shuningdek xalq qo'shiqlari yo'lga o'tish, ularni mazmunan yangilash jarayoni ham boshlandi.

Yangilanishning ikkinchi omili sifatida shubhasiz, davr voqealari, kishilardagi tafakkuriy evrilishlar, boshqa xalqlar adabiyoti bilan o'zaro adabiy-madaniy aloqalarni ko'rsatish o'rinlidir. Ammo barcha o'zgarishlar milliy shoirlarimiz tafakkur tarzi, ko'ngil kechinmalarida sodir bo'lib, badiiy so'zga evrildi. Yangi mazmun o'ziga xos badiiy shakl va ifoda uslubida bo'y ko'rsatdi.

Jadid adabiyotida shaklan aruzni, mazmunan barmoqni eslatuvchi ijod mahsullari – “milliy she'r”lar yuzaga keldi. Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” (1909), Hamza Hakimzodaning “Milliy ashulalar” (1915), Tavalloning “Ravnaq ul-islom (milliy she'rlardan 1-juz)” kabi to'plamlarini kuzatish shuni tasdiqlaydiki, hali shakl to'liq yangilanmay turib, jadid she'riyatida adabiy istifodaga noodatiy mazmun, yangicha poetik obraz va ifodalar kiritila boshlagan. Binobarin, mutlaqo yangi shakllarga o'tish oldida turgan jadid shoirlari shakliy-uslubiy izlanishlar: “qora elimizni tushunuvina o'ng'ay bo'lsin uchun” (Hamza) qilinayotganiga e'tibor qaratishi bejiz emasdi.

Sir emaski, mumtoz she'riyatda tasavvufiy ohanglar, ilohiy ishq tasvirlariga keng o'rin berilgan edi. Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti, xususan she'riyatida lirik qahramon ijtimoiylashdi. Endi u zulm va istibdodga qarshi kurashuvchi, jaholat va qoloqlik bilan murosa qilishni istamaydigan shaxsga aylandi. Zotan Turkistonda milliy uyg'onish deb nom olgan bu harakat XIX asr oxirlaridan boshlandi. O'sha davrlardan e'tiboran she'riyatning mavzusi va uslubi yangilana boshladi. Ma'rifatparvarlik harakatining mantiqiy davomi bo'lgan jadidchilik va uning badiiy adabiyot maydonidagi ifodasi, xususan jadid she'riyatining ilk bosqichida ko'p asrlik adabiy an'analar qolipi parchalandi.

“Bu bosqich she'riyatda “tajriba bosqichi” bo'ldi va u badiiy ifodaning to'porilikdan jozibadorlikka o'tishiga zamin hozirladi. “Kuydan da'vatga” aylangan bu davr she'riyatini ma'rifiy ruhdagi she'rlar bayozi, deyish mumkin. Unda “erkinlik”, “taraqqiyot”, “ma'rifat” mavzulari qizil chiziq bo'lib o'tganini

ko 'ramiz' [21. 128], deb yozadi B.Qosimov. Adabiyotshunos olim XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrdagi milliy adabiyotimizda badiiyat u qadar yuksak emasligini quyidagi faktorlar bilan izohlaydi: a) fikr aytish muhim sanala boshlagani; b) da'vatkorlik va tanqid ruhining ustuvorligi shoirlarni oddiy va keskin ifodalar qo'llash, poetik hashamdorlikdan qochishga undashi; v) shakldan ko'ra mazmunning yetakchiligi; g) yangi shakl va janrlarni sayqallash, uslubni takomillashtirish harakati avj olishi [21. 128].

Darhaqiqat, jadid shoirlari ijodida an'anaviy obrazlar ilgarigi ma'nosidan uzoqlashib, yangicha ma'no-mazmunga ega bo'ldi. Masalan: Abdulla Avloniyning "Adabiyot yohud milliy she'rlar" [1. 94-184] to'plami mumtoz adabiyot an'analari yo'sinida shakllantirilgan edi.

Ma'rifatparvar, millatparvar jadid shoirlari jahonning turli burjlarida sodir bo'layotgan madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, buhronlar, taloto'plarni hissiy idrok etishdi. Anglamlarini elga anglatmoqni tilab, ularni poetik ifodaga ko'chirishdi. Xalqning dardu alamlari, zulm ostidagi ayanchli qismatini, hol-ruhiyatini, erk va ozodlik istagidagi vatandoshlari hasratlarini kuylashdi. Keng ma'noda esa, ular umuminsoniy masalalarni ilgari surish orqali bashariyat istiqboli haqida so'z yuritishdi.

She'riyatni mazmunan va shaklan, shuningdek mundarijaviy jihatdan yangilanish ehtiyoj va zarurat edi. Chunki davr ruhi va voqeligini aks ettirish orqaligina yetarlicha ta'sir kuchiga ega bo'lish mumkin edi. O'tish davrining qisqa vaqtda xalqni millatga aylantirish talabi mavjud adabiy an'analarni yangilash, yanada aniqroq aytganda, she'riy sistemalar, qofiya tizimlari, she'riy shakllar, poetik obrazlar olamini ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotlari bag'riga singdirib yuborish orqali hozirjavob yangi adabiyot yaratishni taqozo qilardi. Eski an'ana qoliplarini sekin-asta yorib chiqish jarayoni yuzaga keldi.

Jumladan: So'fizodaning "O'qunglar, onalar" musaddasi, Avloniyning "Biz nelar qilamiz?", "Ikki sado", "Jarida muhiblarina", "Shoir ila to'ti", "Iffatli insonlar", "Gapurmanglar", "Sadoyi bulbul", "G'alat", Hamzaning "Ahvolimiz", "Jahlda qolganlarmiz" kabi she'rlarida taraqqiyparvarlik davri she'riyatiga xos shikoyat, hasbi hol, millat axloqi masalalari aks etdi. "Gapurmanglar" she'rida an'anaviy ishq mavzusi va tasvir usulini yangilashga chaqiriq, ijtimoiy nuqsonlarni bartaraf qilishdan bahslashishga da'vat o'z ifodasini topadi:

Sizga arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,

Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar.

Keling emdi yozaylik, so'zlashaylik kamchiliklardan.

Ta'kidlash o'rinliki, bu o'rinda keskin inkorni izlash to'g'ri emas. Agar keskin inkor izlansa, adabiy vorislik qonuniyati unutilgan bo'ladi. Zotan ma'rifatparvar shoirlar mumtoz poetik an'analarda doirasida ijod qilib, jadid adabiyotining poydevoriga asos solishdi [12. 26-36]. Yuqoridagi satrlarda Avloniy ishqiy-intim lirika o'z o'rnini ijtimoiy muammolar, real hayotiy dardlarga bo'shatib berishi zarurat maqomiga ko'tarilganligiga e'tibor qaratmoqda. Ajziy ijodi xususida fikr yuritgan Vadud Mahmud ham o'z vaqtida:

“Bizning shoir eski she’rning shakliy jihatlarini, ifoda tarzini aynan qabul qilib, ichiga eskiga tamomila qarshu bo’lg’on o’z ruhini, yangi ruhni kirgizgandir. Ajziy shevada Fuzuliy yo’lini tutkan shoirlardandir. Bu shoirimiz ham oshiqdir. Faqat buning ishq u na tasavvuf ishqidir, na realist shoirlarning zohiriy ishqidir. Shoirimiz oshiqdir, ma’shuq esa xalqdir, millatdir. Millati va xalqig’a muhabbati uning ishqidir” [7. 34-42], deb yozgan edi. Bu adabiy-estetik konsepsiyani aksariyat ma’rifatparvar va jadid shoirlar ijodiy merosiga to’la tadbiiq etish mumkin. Maslan, A.Avloniy ijodida “gul” obrazi muayyan transformatsiyaga uchraydi:

*Xor alindan bag’ri qon o’lmish, bo’yanmish qona gul,
G’uncha bag’rin chok etub, afg’on qilur afsona gul...*

*Yuzdagi holi emas, zolim tikonning yorasi,
Kecha-kunduz zahmi g’am birlan butun o’rtona gul...*

*Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,
Xor zulmindan to’kar ko’z yoshini durdona gul...*

Gulning qizilligi uning bag’ri qonligidan. G’uncha holatidan gul bo’lib ochilishida bag’rini chok etmoqlik namoyon. Gul yuzidagi xol emas, balki zolim tikanning yarasi. U kechayu kunduz shu yaraning zaxmidan o’rtanadi. Shu bois, subhidamdagi tomchilar ham jo’n shabnam emas, balki gulning ko’z yoshlaridir.

Anglashiladiki, jadid adabiyoti, xususan she’riyati ma’rifatparvarlik adabiyotining mustahkam poydevori, ya’ni ichki adabiy-estetik bazis ustida qad rostladi. Kayfiyat-hollari o’zlariga nisbatan yaqin bo’lgan tatar, turk, ozarbayjon, boshqird va jahon adabiyoti ilg’or tajribalariga tayandi. Millatni uyg’otish niyatidagi ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik va jadidchilik harakatlari va ulvrning badiiy tazohiri bo’lgan adabiyot bir-birining mantiqiy davomi bo’lgan o’zaro izchil va dinamik hodisadir.

Albatta, bu zanjir mohiyatida vorisiylikdan uzoqlashmagan inkorni inkor qonuniyati ham amal qiladi. Chunki o’z shonli tarixi, madaniyatini jahonga tanitish va o’zini taraqqiy etgan millatlar safida ko’rish istagi va so’z maydonida mo’ljallangan auditoriyaning o’ziyoq mazmun, shakl, uslub va ifoda yo’sinlarida izlanish va tajribani, yangilanishni taqozo etardi. Ustoz olimlarimiz o’tgan asr nihoyasidayoq: *“Jadid adabiyotining yetakchi sohasi she’riyatdir. O’zbek mumtoz she’riyatidan ham vazn, ham til va uslub, ham g’oyaviy jihatdan keskin farq qilgan jadid she’riyati XX asr o’zbek adabiyotining yangi yo’nalishda ravnaq topishiga tamal toshini qo’ydi” [5. 18], deb yozishganida to’la haq edilar.*

Milliy she’riyatimiz rivoji uchun kuy, ohang izlab tinimsiz izlanishda bo’lgan Abdulla Avloniy “Millatga xitob” she’rida Sharq kuylari ritmiga tayanadi va da’vatkor ruhni ifodaga ko’chiradi:

E!.. Tokayg’acha g’aflat ichra yotamiz!

*Keling yoshlar , jaholatni otamiz .
Bizga bu kun ilma kirishmak kerak,
Bizga bu kun ilma tirishmak kerak [1. 175].*

Abdulla Avloniy o‘zining barmoq vaznidagi ilk she‘rlarini xalq qo‘shiqlari usulida yozdi. Bu hol ma‘rifatparvarlik va jadidchilik davri shoirlari folklor va yangi davr milliy she‘riyatini o‘zaro sintezlashtirish va ichki omillar hisobiga yanada milliylashtirishga intilishgapnini ko‘rsatadi. Jumladan, A.Avloniy ham bu yo‘sinda ibratli izlanishlarni amalga oshirdi. Shoirning bir qator she‘rlari nainki xalq qo‘shiqlaridan, balki mumtoz maqom va savtlarning kuy va ohanglaridan, hatto mashxur opera asarlaridan ham ilhomlanib bitilgan.

A.Avloniyning “Millatga xitob” she‘ri sharq kuylaridan; “Oh bag‘ri qonim” she‘ri “Rost” kuyidan; “Saodat shundadir” she‘ri “Qoshg‘archa” va “Anorxon yorim”dan; “Jahldan nafrat” she‘ri“ “Dugoh” dan; “Munojot” she‘ri “Segoh”dan ta’sirlanib, ularning kuy va ohanglari ruhida yuzaga keldi. Shuningdek, “Ilma targ‘ib” she‘ri “Layli Majnun” operasidan; “Milliy nag‘ma” she‘ri “Shoh Abbos” operasidan ta’sirlanish natijasida yorug‘likka chiqdi.

Umuman, Abdulla Avloniy marifatparvarlik va jadid she‘riyatini shakl, mazmun, ifoda va uslub nuqtai nazaridan yangilashga munosib hissa qo‘shdi. Shoir lirik merosining poetik ifoda rakursleri rang-barang bo‘lib, ular o‘z davri ilg‘or g‘oyalarini ifodalashga xizmat qildirildi. A.Avloniy o‘z she‘riyatida jadidlarning g‘oyalari, maqsadlari va vazifalarini badiiy aks ettirdi. An‘anaviy she‘riy shakllar va ifoda tarziga amal qilgan holda, uni yangicha ruh, millat dardlari bilan boyitishga intildi. U adabiyotning ijtimoy-estetik maqomi o‘zgarganligini birinchilardan bo‘lib ilg‘adi va ijod yo‘nalishini shunga muvofiqlashtirdi. Binobarin shoirning dunyoqarashi, odam va olamni idrok va ifoda etish tarzi uning badiiy ijod prinsiplarini belgilab berdi. Bu prinsip milliy uyg‘onish davri adabiyoti, xususan o‘zbek jadid she‘riyati milliy zamindan oziqlanib, milliy ruh ifodachisi o‘laroq maydonga chiqishi konsepsiyasiga asoslanar edi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Авлоний Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.
2. Афоқова Н. Жадид ғазалиёти. – Тошкент, Фан, 2005.
3. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. – Тошкент Ислон университети НМБ. 2016.
4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент, Фан, 1980
5. Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
6. Каримов Н. Чўлпоннинг тиниқ олами // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2009 йил, 29 июнь;

7. Маҳмуд Вадуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007.
8. Матёкубова Т. Гафур Ғулом шеърлятида лирик қаҳрамон рухияти тасвири // “World of Philology” Scientific Journal VOLUME 1 ISSUE 2 / December 2022. – Б.12-18
9. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
10. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
11. Matyakubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
12. Назарова Ш. Жадид шеърлятида Навоий анъаналари. // Journal of Central Azian Renaissance. 2021. Volume 2, Issue 2. P. 26-36.
13. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. - Тошкент: Ёзувчи, 1994.
14. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари Ҳамидулла Болтабоев талқинлярида. 1 китоб. Қайта ишланган ва тузатилган иккинчи нашри. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008
15. Yakubov Islamjon. Poetic thought and expression possibilities in uzbek novels // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Vol. 6 Issue. 2 (February-2020)
16. Якубов И. “Мини-роман” яратиш йўсинидаги экспериментал изланишлар // “World of Philology” Scientific Journal VOLUME 1 ISSUE 2 / December 2022. – Б.5-12
17. Yakubov I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy “Romeo and Juliet”. ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 517-520
18. Matyokubova, T., & Yakubov, I. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, 2020. pp. 28-37.
19. Yakubov I. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. SECTION 29. Literature. Folklore. Translation Studies. 2017, 12. Pp. 120-125.
20. Yakubova Sevinchoy. Description of the spirit of call for patriotism and unity in the poetry of Fitrat / International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 83-85
21. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
22. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент, 1970

MUNDARIJA

| I SHO‘BA Zahiriddin Muhammad Boburning jahon adabiyoti, ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati. | | | |
|---|---|--|----|
| 1 | B.Shermuhammadov | Shoh va shoir ibrati | 5 |
| 2 | Е.СЫДЫҚОВ | Алғы сөз | 8 |
| 3 | Усмонзода Аюб Ислам | Захириддин Мухаммед Бабур – великая историческая личность | 9 |
| 4 | R.Polat | Açılış konuşması | 11 |
| 5 | Almaz ÜLVİ (Binnətova) | Zahirəddin Məhəmməd Babur Azərbaycanda | 14 |
| 6 | М.Мирзююнус | Bobur va uning oilasi Gulbadanbegimni "Humoyunoma"da | 20 |
| 7 | Y.Solijonov | Bobur – reformator va novator san’atkor | 25 |
| 8 | N.Rahmonov | “Boburnoma”da ilm va ijod | 29 |
| 9 | A.Sabirdinov | Zahiriddin Muhammad Bobur – shoh va shoir, adib va olim, sarkarda va ruhshunos | 33 |
| 10 | H. Jo‘rayev | Ustoz-shogirdlikning buyuk timsoli | 38 |
| 11 | I.Ostonaqulov | Boburona g‘azallar hikmati | 41 |
| 12 | N.Otajanov R.Kazakova | “Boburnoma” – o‘zbek nasrining XVI asrdagi betakror, go‘zal namunasi | 47 |
| 12 | I.A.Yakubov | "Boburnoma" tarixiy-memuarida Alisher Navoiy vasfi | 50 |
| 12 | A.N.Nasirov | Sharq va G‘arb sivilizatsiyasida Bobur ijodining o‘rni | 55 |
| 14 | I.I.Sulaymonov | «Boburnoma»da shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri | 60 |
| 15 | G‘.Xamidov M.Y.Imomova M.R.Mamadaliyev | Boburnomada tabiat ko‘rki | 67 |
| 16 | U.U.Qobilov A.A.Zokirova | Bobur she‘riyatida mumtoz an’anaviy obrazlar talqinidagi o‘ziga xosliklar | 70 |
| 17 | M.M.Mirsaydullaev | Boburning dubulg‘asi va uzuklari | 74 |
| 18 | M.M.Mirsaydullaev | “Boburnoma” jahon kezadi | 80 |
| 19 | M.M.Mirsaydullaev | Bobur masjidi | 81 |
| 20 | M.M.Mirsaydullaev | Bobur muhri | 83 |
| 21 | М.К.Ескеева | Образ женщины в тексте «Бабур наме» | 88 |
| 22 | Қ.Йўлчиев | Мемуар жанрининг “Бобурнома”гача бўлган такомилли | 94 |
| 23 | O.R.Juraboev | Jahon qo‘lyozma fondlaridagi | 99 |

| | | | |
|----|--|---|-----|
| | | Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari | |
| 24 | Б.Б.Файзуллоев | Адабий таълимда “Бобурнома”ни таъдил варианты асосида ўрганиш | 104 |
| 25 | Ф.Исомиддинов | Дилбар дил ва икки тил соҳиби | 109 |
| 26 | I.Rustamova, D.Murotova | “Boburnoma” da ritm va uning badiiy – estetik funksiyasi | 116 |
| 27 | S.Muminova | “Tarixi Rashidiy” asarida Bobur haqida | 121 |
| 28 | Sh.I.Isakova | Zahiriddin Muhammad Boburning jahon adabiyoti va ilm-fani taraqqiyotidagi oʻrni | 126 |
| 29 | S.Muminova | Boburning insoniy fazilatlarini | 129 |
| 30 | M.Sulaymonov G.Xoldorova | Alisher Navoiy nasrining Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga taʼsiri | 135 |
| 31 | M.M.Махмадшоев | Таҷассуми шахсиятҳои адаби, илмӣ ва ҳунарий дар “Бобурнома”-и Заҳириддин Муҳаммад Бобур | 137 |
| 32 | M.Комилова | Нақш ва мақоми Заҳириддин Муҳаммад Бобур дар рушди адабиёт ва густариши забони тоҷикӣ | 149 |
| 33 | M.Dehqonova | Zokirjon Yoqubov - Boburshunos | 154 |
| 34 | Kemal Yavuz Ataman | Babürşah ve Küreselleşen Hindistan | 158 |
| 35 | S.Qurbonova, D.Dehqonova | Z.M.Bobur muzaffarliklari | 162 |
| 36 | A.Makhmudjonova | 17.Yüzyilin başlarında Bâbürlü Hkümdari ekber şah için hazirlanan ekbernâme eseri üzerine bir değerlendirme | 165 |
| 37 | З. Ҳ. Ғулмасова, Ф. А. Қайумова | Тоҷикистондаги Бобурга оид бир рисола ҳақида | 170 |
| 38 | O.X.Barziyev | Zahiriddin Muhammada Bobur gʻazallarida qoʻllangan anʻnaviy radiflar tadriji | 174 |
| 39 | A.Tursunov | Nemis adibi M.Pravdin ijodida Bobur Mirzo talqini | 178 |
| 40 | O.Adizova, B.Azimov | Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Ona-Vatan va tabiat tasviri | 181 |

| | | | |
|---|---|--|-----|
| 41 | O.Adizova S.Suvonqulova | Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy faoliyatiga biografik yondashuv | 185 |
| 42 | M.Saydumarov | “Boburnoma” arab tilida: tarjima va asliyat uyg’unligi | 189 |
| 43 | У.Мусабекова | «Бабур-наме» - гордость тюркской прозаической литературы | 195 |
| 44 | O.Xolmatov | “Boburnoma” asarida urush mavzusining badiiy-estetik funksiyasi | 200 |
| 45 | Э.Гиздулин, М.Садикова | Влияние «Бабур-наме» на развитие мировой литературы | 205 |
| 46 | Sh.Norqulova | “Boburnoma”da ayollar obrazi | 209 |
| 47 | R.Rasulova | Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati | 215 |
| 48 | T.Mashrabboyev | “To hanuz saqlab kelur Bobur, Muqimiy shonini” | 218 |
| 49 | B.Xamdamov | Zahiriddin Muhammad Boburning axloqiy va diniy qarashlariga oid ayrim savollar | 223 |
| 50 | X.Чамолова | Мероси форсии Бобур | 227 |
| 51 | M. Usmonova Sh. Karimova | Z.M. Bobur she’riyatida vatan mehri manzaralari | 232 |
| 52 | <u>M.M.Комилова</u> А. Х.Насиров | Раненая душа и великая судьба Бабура пример для молодёжи | 237 |
| 53 | N.Mahmudova | “Mubayyin” asarida badiiy komponentlar | 241 |
| 54 | M.A.Kariyeva | Bobur asarlarida milliy qadriyat ifodasi | 248 |
| 55 | N.Hamidov | “Boburnoma”dagi she’rlarda timsollar talqini | 254 |
| 56 | Z.Eshonqulov | Bobur va Hofiz ko’hakiy | 258 |
| 57 | D.K.Abduraxmonova, A.H.Tursunov | «Boburnoma» dagi meva – sabzavot nomlarini nemis tilida qayta yaratishga oid | 263 |
| 58 | A.Rohatalaiyev | Zahiriddin Muhammad Bobur an’analari Erkin Vohidov ijodida | 267 |
| 59 | D.Umarov, G.Shodiyeva | Bobur ijodida lirik janrlarning o’rni | 275 |
| II SHO‘BA ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI | | | |
| 60 | Н. В.Русинова | Рецепция творчества анри де ренье во | 282 |

| | | | |
|----|--|---|-----|
| | | франции и в россии | |
| 61 | Z.Suleimenova B.Korganbekov | Yasawi teachings are the basis of the Kazakh people national ideology | 287 |
| 62 | A.Sabirdinov H.A.Mahmudbekova | Xurshid Do'stmuhammad qissalarida syujet elementlari | 301 |
| 63 | A.Sabirdinov M.Muhammedova | A.P.Chexovning "Kichik tragediya" turkumidagi hikoyalarida portretning xarakter talqinidagi o'rni | 304 |
| 64 | H.Jo'rayev Z.Maxmudjonzoda | Ayol obrazi. Ilohiylikdan ibratlikkacha. | 311 |
| 65 | H.Jo'rayev, D. Anvarova | O'zbek adabiyotida "Shohnoma" an'analari | 316 |
| 66 | A.A.Qosimov M.A.G'aniyev | Tarixiy romanda syujet va kompozitsiya | 321 |
| 67 | A.Qosimov S.Tursunaliyeva | Olim Otaxonning "Nur" hikoyasida ramziy tasvir imkoniyatlari | 324 |
| 68 | N.D.Hasan | Yassaviylikka bag'ishlangan "Tanzilus-solihin" asari haqida ayrim mulohazalar | 330 |
| 69 | О.Абдуллоев | Муҳаммаднинг тўртликларда ташбих санъатидан фойдаланиш маҳорати | 340 |
| 70 | М.Курбанова | Творческий феномен Зебунниса бегим | 344 |
| 71 | G.Imomova | Ko'pmuammolilik – asar syujetining asosi | 348 |
| 72 | Ш.Пўлодова | Асосҳои назарии ташаккули илми бадеъ ва маонӣ | 353 |
| 73 | О.А Акбаров Ш.Абдулхонова | Анализ образа женщины в драме А. Н. Островского «Гроза» и Гузель Яхиной «Зулейха открывает глаза» | 360 |
| 74 | О.А.Аkbаров М.Ботирова | Некоторые особенности цветовой символики романа М.Булгакова «Мастер и Маргарита» | 364 |
| 75 | M.Saydumarov | Saudiyalik adiba Badriya al-Bishr – arab ayolining erkinlik ovozi | 369 |
| 76 | G.Muhammadjonova I.Nabiyeva | Alber Kamyu va Ulug'bek Hamdam asarlarida yolg'izlik motivi | 377 |

| | | | |
|----|--|--|-----|
| 77 | M.Jo‘rayeva | Jadid va jadidchi ayollar taqdiri | 381 |
| 78 | I.S.Mannopov | Ma‘rifat kontseptsiyasi ta‘rifiga doir | 388 |
| 79 | T.Matyoqubova | Shoirona tafakkur ufqi kengliklari | 392 |
| 80 | I.Rustamova, N.Azimova | Xarakterni ochishda badiiy detalning o‘rni | 398 |
| 81 | Sh.Karamova | Zamonaviy o‘zbek aruzida istioraviylik | 405 |
| 82 | G.Quylieva | Roman-epopeyada g‘oyaviy konseptullik | 409 |
| 83 | A.Qayumov | “Sevgi” tahlili | 412 |
| 84 | M.Xamidov | She‘riyatda ijodkor obrazining ifodalanishi | 417 |
| 85 | O.A.Akbarov U.Valijonova | Особенности постмодернизма в творчестве В.В.Набокова | 423 |
| 86 | H.Sobirov M.Baxodirova | Своеобразие и особенности трагикомедии в мировой литературе | 426 |
| 87 | O.A.Akbarov D.Xaydaraliev | Литературно-художественный анализ образа Госпожи Бовари. | 433 |
| 88 | A.Qayumov J.B.Isakova | Badiiy asarlarda bola psixologiyasini yoritishda dialoglarning o‘rni | 437 |
| 89 | D.Mukumova | Мутрибии Самарқандӣ – шоири Пайрави мактаби адабии Шайх Камоли Хучандӣ | 441 |
| 90 | G.Oripova | O‘zbek she‘riyatida voqeaband lirika | 447 |
| 91 | G.Oripova M.Alijanova | O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida ayol portretining g‘oyaviy-badiiy talqinlari | 454 |
| 92 | R.M.Umrzoqov | Bola obrazining ilmiy-nazariy xususiyatlari | 458 |
| 93 | R.Umurzakov M.Azimjonova | “Jimjitlik” va “Shovqin” romanlarida badiiy nutq ko‘rinishlari | 464 |
| 94 | R.Umrzoqov R.Saidjamolova | Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asarida qahramon xarakteri va badiiy nutq masalasi | 468 |
| 95 | R.Umrzoqov Sh.Sh.Sherqo‘ziyev | Badiiy asar sujetida o‘limning o‘rni va uning ta‘siri | 474 |

| | | | |
|------|---------------------------------|--|-----|
| 96 | М.Хамидов Х.Комилова | Хайридин Сultonning “Saodat sohili” qissasida Bobur obrazi | 478 |
| 97 | М.Қурбоналиева | Бахсҳо оид ба рӯзгори Мутрибии Самарқандӣ | 482 |
| 98 | А.Примов | Abdulla Qodiriy nasrida folklor unsurlarining ro‘li | 488 |
| 99 | С.Ходжайев | Ertaklarda uchlik arxetipining o‘rni | 492 |
| 100 | А.А.Абдурахмонов | Milliy she‘riyatda yulduzning badiiy talqinidagi o‘ziga xoslik (o‘zbek va rus she‘riyati misolida) | 495 |
| 101 | Д.Раѳимқулова | Navoiy lirikasi turkiy poeziyaning boy tajribalari misolida | 498 |
| 102 | Я.Нишанов | Параллелизм и миграция сюжета в устных и письменных источниках | 501 |
| 1103 | Я.Нишанов М.Сухарева | Факторы параллелизма и миграции сюжета в литературных источниках | 508 |
| 104 | М.Љўраев | Использование некоторых имен существительное в «Переводe «Та`рихи Табари» | 513 |
| 105 | U.X.Yuldosheva | Omon Muxtor romanlari poetikasi | 518 |
| 106 | Э.Ф.Гиздулин | Постапокалиптика и ее место в современной фантастической литературе | 522 |
| 107 | I.Saymuratova | Tarixiy tetralogiyada kompozitsiya, poetik nutq va uslub masalasi | 524 |
| 108 | Ш.Хашимова | Тимур Пўлатовнинг “Тебранаётган Евроосиё” романидаги ривоя тарзи ҳақидаги баъзи мулоҳазалар | 529 |
| 109 | С.Нақназарова | Abdulla Sher ijodida Bobur talqini | 532 |
| 110 | О.Аҳмадjonova | “Chinor” romanida tarixiy shaxslar tasviri | 536 |
| 111 | С.Олимjonov | Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida amir qiyofasi | 540 |
| 112 | М. М.Мамурова | Мақсуд Қориёев тарихий романларининг та'сир манбалари | 549 |

| | | | |
|-----|--------------------------------------|--|-----|
| 113 | T.Mo‘minova | “Kuza...” qissasida ruhiy holat tasviri | 550 |
| 114 | X.Abdulxamidova | Ijodkor uslubida badiiy-psixologik xronotop | 558 |
| 115 | Z. Tojimatova | Nasriy asarlarda ayol muallifning uslubi va ijodiy salohiyati. | 565 |
| 116 | Sh.Maxmidjonov | Badiiy obrazning nazariy asoslari | 570 |
| 117 | G.Xaydarova | Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” tarixiy asarida konfliktning ifodalanishi | 575 |
| 118 | M.Abdurahimova | Qo‘chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi | 578 |
| 119 | Ш.К.Хошимова Г.Эминжонова | Традиции готического романа на рубеже XIX-XX веков | 581 |
| 120 | Ш.К.Хошимова Х.Эшонова | Образ города в литературе | 587 |
| 121 | I.Habibullayev | O‘zbek xonadoni tasvirida badiiy tasvir va ifoda vositalari (Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov hikoyalari asosida) | 591 |
| 122 | N.Samandarova | Tarixiy-biografik roman va uning nazariy-metodologik asosi | 598 |
| 123 | S.Yoqubova | Abdulla Avloniy she’riyatida milliy ruh ifodasi | 603 |
| 124 | Ж.Темуров | A.Axmatova she’rlarida sharq odami obrazi talqini | 609 |
| 125 | <u>S.Begmatova</u> | Ingliz adabiyotida distopik asar rivojlanish bosqichlari | 614 |
| 126 | S.Karimova, | Bemor obrazi va tabiat tasviridagi mushtaraklik | 619 |
| 127 | N.N.Sulaymonova | Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida hayot va inson falsafasining badiiy ifoda rakurslari | 623 |
| 128 | S.B.Babayeva | “Ma’suma” romanida obraz yaratishdagi | 626 |

| | | | |
|-----|-------------------------------------|---|-----|
| | | biografik yondashuvning tarixiy-badiiy omillari | |
| 129 | E.Oqbo‘tayev | Anvar Obidjon nasrida hajviya qirralari | 631 |
| 130 | I. Jo‘rayev, H. Jo‘rayev | Tarixiy voqelik va ijtimoiy hayot ko‘zgusi | 635 |
| 131 | M.Madazimov | Shukur Xolmirzayevning “Tabassum” hikoyasida qahramonlar talqinidagi o‘ziga xosliklar | 638 |
| 132 | D.Uralova | “Na’matak” mini romanida tasviriy ifoda va vositalarning o‘rni | 643 |
| 133 | O‘.Mo‘sidinova | Xayriddin Sulton hikoyalarida detal va qahramon xarakteri | 647 |
| 134 | З.Ш.Нуридинов | Тема детства и образы детей в прозе а. П. Чехова | 652 |
| 135 | N.A.Cho‘liyeva | Nazar Eshonqul ijodida badiiy zamon va makon shakllari | 656 |
| 136 | O.Yoqubov | Lirik tuyg‘ular jilosi | 661 |
| 137 | G.Isabayeva | O‘zbek qissachiligida ona obrazining badiiy talqinlari: mushtaraklik va o‘ziga xoslik | 666 |
| 138 | Н.С. Собиров З.Кузибаева | «Вечные ценности» в романе «Лавр» Е.Водолазкина | 671 |
| 139 | B.Muxtoraliev | Anvar Obidjonning “Ey,yorug‘ dunyo...” qissasida bosh qahramon va konflikt | 674 |
| 140 | X.Odilov | Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayollar ruhiyati tasviri | 681 |
| 141 | B.Rajavaliyev | Mumtoz adabiyotda qo‘llangan badiiy timsollar | 687 |
| 142 | X.Mirzakarimova | Xoja Ahmad Yassaviy hikmatnavislik maktabining asoschisi sifatida. | 694 |
| 143 | M.Qurbonova | She‘riy matn uslubiy xususiyatini yuzaga chiqaruvchi vositalar | 701 |

| | | | |
|-----|----------------------|---|-----|
| 144 | M.To'lqinova | Zulfiya Qurolboy qizining "Muhabbat va nafrat" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri | 705 |
| 145 | O.Aliyeva | G'azalda peyzaj tasvirining o'rni | 709 |
| 146 | S.Komilova | Adashgan insonning so'ngi hayqirig'i | 713 |
| 147 | J.Sayidolimov | Agiografik adabiyotda qushlarga bo'lgan munosabat | 718 |

III SHO'BA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

| | | | |
|------|--|---|-----|
| 148. | E.Ibragimova | Fe'l leksemalarda baho munosabatining ifodalanishi xususida | 723 |
| 149. | M.Курбанова Г.Иномжонова | Место грамматики в системе обучения русскому языку как неродному | 725 |
| 150. | Г.Мирсаминова Ч.Истамқулов | Роҷеъ ба вожаҳои иқтибосӣ дар забони тоҷикӣ | 728 |
| 151. | О.Акбаров. М.Машрабова | Особенности обучения детей – билингов русскому языку | 732 |
| 152. | С.Эркаев Н.Эркаева | Русский язык – язык межкультурное общения народов края | 736 |
| 153. | N.Nasiyeva | Qəzet və jurnal başlıqlarında dil oyunu | 742 |
| 154. | H.Do'smatov, F.Mahmudova, Z.Mahmudova | Psixolingvistikada assotsiativ funksiya | 747 |
| 155. | M.Amonov T.Boltaboyev | "Boburnoma" da qo'llangan onomastik birliklarning mavzuiy guruhlari | 749 |
| 156. | Z.Alimova | "Boburnoma"da noodatiy nutqiy birliklar - okkazionalizmlarning qo'llanilishi | 753 |
| 157. | C.Љураева | Корбурди воҳидҳои фразеологии нодири аз забони араби тарълумагардида дар таърихномаҳои садаҳои X-XIII | 759 |
| 158. | A.Rasulova | Shart va to'siqsizlik munosabatining buyruq-istak mayli orqali ifodalanishi | 766 |
| 159. | M.Axmedova | Ijtimoiy jarayonlarning tildagi o'zgarishlarga ta'siri | 770 |
| 160. | A.Axrоров | Kinoyaning maqollarda ifodalanishi va | 773 |

| | | | |
|------|---|---|-----|
| | | pragmatik imkoniyatlari | |
| 161. | M.Burxanova | Olfaktor metaforaning ba'zi xususiyatlariga doir | 778 |
| 162. | F.Karimova | Muloqot nutqida psixolingvistik qirralar | 780 |
| 163. | B.Farmonov | Semantic features of relief phonemes in the english language | 785 |
| 164. | A.Saminov N.Karimova | Oksyumoron – sarlavha sifatida | 789 |
| 165. | N.Quldashev S.Ahmadjonova | Bobur asarlari tili | 794 |
| 166. | N.Qo'ldashev M.Abdullayeva | Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida Tilshunoslikning dolzarb masalalari | 798 |
| 167. | Р.Бабазаде | “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində Mənaca dəyişmiş feillər | 801 |
| 168. | И.Порубай | Функции языка в среде интернета: Философский подход | 806 |
| 169. | З.Таштемирова Н.Избаева | О сущности и аспектах проявления языковой интерференции | 810 |
| 170. | А.Турсунова | Языковая игра в коммуникативном пространстве сми и рекламы | 815 |
| 171. | М.Комилова | Развитие русской письменной речи учащихся узбекских групп при дифференцированном подходе к обучению | 820 |
| 172. | М.Комилова | Нақш ва мақоми заҳириддин Муҳаммад Бобур дар руши адабиёт ва густириши забони тоҷикӣ | 825 |
| 173. | Б.Дехконов | Методологические проблемы изучения семантической структуры архитектурно-строительных терминов | 830 |
| 174. | Т.Алимов | Эвфемизмы как средство манипулирования в языке сми | 835 |
| 175. | М.Saydumarova | Lingua-cultural features of arabic speech etiquette | 840 |
| 176. | М.Kosimova | How stylistics and sociolinguistics are connected? | 846 |

| | | | |
|------|-----------------------------------|--|-----|
| 177. | G.Bahodirova | Kashtali badiiy buyum nomlarining leksik-semantik tahlili | 849 |
| 178. | A.Shodiyeva | Rasmiy ish hujjatlarining tarixiy nomlanishi va yuritish asoslari | 854 |
| 179. | Г.Юлдошева | Забонъои хорилъи ва омӯзиши мероси фаръангӣ | 858 |
| 180. | D.Abatov | Qashqadaryo xalq dostonlari tilida qo'llangan Toponimlar tadqiqi | 863 |
| 181. | В.Давирова | Общее грамматическое значение имен существительных в русском и узбекском языках | 867 |
| 182. | E.Hüseynova | Sosiolinqvistikanın əhəmiyyət kəsb edən Bəzi anlayışları | 871 |
| 183. | I.Ahmadjonov | Morfem birliklarga oid tadqiqotlar tarixi | 875 |
| 184. | Z.Madrimova | Savdo nomlarining va tovar belgilarining tarkibiy hamda semantik xususiyatlari | 879 |
| 185. | N. Qurbonov | Topoobyektlar onomastik nomlanishlarining semantik tasnifi | 884 |
| 186. | U.Rashidova D.Suyunova | Zahiriddin Muhammad bobur g'azallarida qo'llangan somatik frazeologizmlarning semantik-pragmatik tahlili | 888 |
| 187. | Sh.Nabiyeva | Lug'atshunoslikda orfografik minimumlar tuzishning lingvometodik asoslari | 893 |
| 188. | M.Abdouazizova | Bir tildagi somatik iboraning ikkinchi tilda ekvivalenti yo'qligi (o'zbek va ingliz tillari misolida) | 896 |
| 189. | G.Mamatxonova | Tarjimada uslubni saqlash muammolari | 902 |
| 190. | U.Muminova | Poems from "Mahbub ul-Qulub" | 905 |
| 191. | А.Колпенова | Қазақ және түрік фразеологизмдеріндегі этномәдени деректер: уәждік мазмұн | 909 |
| 192. | О.Акбаров | Психологические и психолингвистические основы обучения терминологической лексике | 916 |
| 193. | P.Kaxramonova | Bobur ijodida tilshunoslikka doir qarashlar | 920 |

| | | | |
|------|---------------------------------------|---|-----|
| 194. | О.Холматова | О`zbek xalq maqollarida kontekstual antonimlarning idrok etilishi | 923 |
| 195. | М.Каримова | Беседа - как метод обучения русского языка | 927 |
| 196. | С.Умарова | Буква Ё за и против | 932 |
| 197. | Н.Салимова | Роль перевода газетных статей в обучении иностранного языка | 936 |
| 198. | З.Сагатова | Лингвокультурологические особенности фразеологических единиц и пословиц английского и каракалпакского языков: концепт «птица» | 941 |
| 199. | З.Низомитдинова Н.Ходжаева | Разновидности и функции парцелляции в газетном тексте | 946 |
| 200. | М.Умаралиева О.Бозорбоева | Манифестация языкового культурного феномена Английского народа в языке | 950 |
| 201. | Н.Усмонова | Дискурс и риторические возможности языковой личности | 954 |

IV SHO'BA
TIL VA ADABIYOT O'QITISHNING ZAMONAVIY VA DOLZARB MASALALARI

| | | | |
|------|---|---|-----|
| 202. | F.Hadi | Classical psycholinguistic schools and directions | 960 |
| 203. | Ш.Хакимова | Методы организации обучения речевой деятельности | 963 |
| 204. | М.Тиллохочаева | Раванди ташаккули салохиятҳои касбии омӯзгори ояндаи забон ва адабиёти тоҷик | 966 |
| 205. | Н.С.Собиров О.А.Акбаров М.К.Хамидова | Сущность инновационной педагогической деятельности | 970 |
| 206. | И.Турсунов | Изучение способов формирования межкультурной коммуникативной компетентности студентов частного вуза | 980 |
| 207. | D.Inomiddinova | General Views on Activities and strategies to use Pre-reading in classes | 984 |

| | | | |
|------|---|--|------|
| 208. | I.Tukhtarova | Ingliz tili darslarida badiiy matnlardan foydalanish | 989 |
| 209. | I.Tukhtarova | Badiiy matn chet tili o'qitish vositasi sifatida | 992 |
| 210. | M.Nazaralieva N.Pulatova | Attitude and princips in teaching english | 998 |
| 211. | M.Nazaralieva Y.Botiraliyev | Improving and implimenting productive skills | 1003 |
| 212. | M.Norqulova | “Alpomish” dostonini o‘qitish usullari | 1009 |
| 213. | Z.Nuridinov E.Gizdulin | Zamonaviy maktabda rus tilini o'qitish sifatini oshirish vositalari | 1013 |
| 214. | R.Ortiqov B.Boqiyev | Investigation of differences between the synecdoche and other types of figurative speech. | 1016 |
| 215. | M.Rakhmonova | Issues of development of written speech in english of students of non-philology higher education countries | 1021 |
| 216. | M.Rojieva A.Boboev | Yoshlarni yuksak ma'naviyatli, mustahkam e'tiqodli, yuqori malakali mutaxassis darajasiga yetkazishning dolzarb masalalari | 1026 |
| 217. | B.Sattarov, N.Makhmudov | Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili mashg'ulotlarini o'tishda interfaol uslublardan samarali foydalanish | 1030 |
| 218. | И. Шакирова | Формирование коммуникативной компетенции студентов на уроках русского языка | 1035 |
| 219. | M.M.Umaralieva S.X.Yakhyoeva | Modern issues of teaching literature | 1040 |
| 220. | X. Valiyeva | Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni o'tkazishning noan'anaviy yo'llari | 1043 |
| 221. | X.Акимбекова | Принципы преподавания рки в неязыковых вузах На базе современных гаджетов | 1047 |
| 222. | M.Ахмедова | Формирование переводческой | 1051 |

| | | | |
|------|-----------------------|--|------|
| | | компетенции По специальности на уроках рки На основе инновационных технологии | |
| 223. | А.Масалимова | Формирование прагматической компетенции студентов на занятиях по русскому языку в частных вузах | 1054 |
| 224. | Б.Нуралиева | Онлайн средства в образовании | 1058 |
| 225. | D.A. Tursunova | Ertaklar yosh o'quvchilarga chet tilini o'qitish uchun madaniy va lingvistik manba sifatida | 1063 |
| 226. | A.Rsaliev | The influence of didactic games on the process of effective learning | 1067 |
| 227. | A.Rsaliev | Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kommunikativ kompetentsiyasini o'rgatishda didaktik o'yinlarining o'rni | 1071 |
| 228. | M.Ashurova | Use of reading materials in the development of speaking | 1075 |
| 229. | D.Inomiddinova | General Views on Activities and strategies to use Pre-reading in classes | 1079 |

